YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Safiyeva Nigora Nurmuxamadovna
Guliston davlat universiteti, PhD.,v.b. dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17287504

Annotatsiya. *Jahonda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilishni takomillashtirishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. “Yer fondini saqlab qolish va ulardan foydalanishni tartibga solish, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanuvchi xo‘jaliklarning aholi bandligini ta’minlash va daromad manbai sifatidagi rolini oshirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va taqsimlash, mahalliy va global bozorlarda oziq-ovqat barqarorligini ta’minlash, yangi texnologiyalar, yashil iqtisodiyot mezonlarini joriy qilish, atrof-muhitga moslashuvchan yondashuvni qo‘llab-quvvatlash, tabiiy resurslardan, shu jumladan yer resurslaridan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta’minlash masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.[1]*

Kalit so‘zlar: *yer resurslari, qishloq xo‘jaligi yerlari, yer toifalari, yer degradatsiyasi, yerdan tizimli foydalanish.*

Аннотация. *В мире проводится множество научных исследований по совершенствованию модернизации системы использования сельскохозяйственных земель. "Сохранение земельного фонда и регулирование его использования, повышение роли хозяйств, использующих сельскохозяйственные земли, в обеспечении занятости населения и источников дохода, выращивание и распределение сельскохозяйственной продукции, обеспечение продовольственной устойчивости на местных и глобальных рынках, внедрение новых технологий, критериев зеленой экономики, поддержка гибкого подхода к окружающей среде, рациональное использование природных ресурсов, включая земельные ресурсы, и обеспечение устойчивого развития являются приоритетными направлениями научных исследований в этой области."[1]*

Ключевые слова: *земельные ресурсы, сельскохозяйственные земли, категории земель, деградация земель, системное использование земель.*

Abstract. *In the world, many scientific studies are being conducted on improving the modernization of the agricultural land use system. "The issues of preserving the land fund and regulating its use, increasing the role of farms using agricultural land as a source of employment and income, growing and distributing agricultural products, ensuring food sustainability in local and global markets, introducing new technologies, green economy criteria, supporting an environmentally friendly approach, rational use of natural resources, including land resources, and ensuring sustainable development are among the priorities of scientific research in this area."[1]*

Keywords: *land resources, agricultural lands, land categories, land degradation, systemic land use.*

Yangi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilishni takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri

hisoblanadi. Hozirda “O‘zbekiston umumiy yer fondining qariyb 59 foizi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘lib, uning 9 foizdan oshiqroq qismi sug‘oriladigan yerlardir. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi yerlaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik, ulardan noqishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanish holatlari, yerlar unumdorligining pasayib ketish holatlari uchramoqda. Respublika iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida tarmoqda faoliyat yurituvchi fermer, dehqon va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda eksport salohiyatini oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan bo‘lib qolmoqda. Shu boisdan ham qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yer resurslaridan foydalanish tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar hamda amaliy takliflarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan dissertatsion tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.O‘zbekiston sharoitida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalalari ushbu yo‘nalishlarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan A.M.Sodiqov, F.Q.Qayumov, R.H.Husanov, O‘.P.Umurzakov, G.K.Saidova, M.S.Abdullaeva, A.A.Abdug‘aniev, Sh.T.Yergasheva, M.V.Kim, A.Latipov, K.Ubaydullaev, A.S.Chertoviskiy, Q.A.Choriev, S.Avezbaev, N.S.Xushmatov, T.X.Farmonov, O.Murtazaev, Ye.F.Trushin, A.K.Bazarov, Q.R.Raxmonov, A.R.Babajonov va boshqa agrar iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida alohida o‘rin tutadi.[2]

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilishni rivojlantirish, eng avvalo, tarmoqda yerdan foydalanuvchilar bo‘lgan fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish bilan bog‘liq muammolar, qishloq xo‘jaligini tezkor rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligining tobora chuqurlashishi, qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali va oqilona foydalanishni rivojlantirish hozirgi kundagi dolzarb masala bo‘lganligi bois, ushbu masala tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy, o‘zaro qiyoslash, konstruktiv-hisoblash, monografik, ekspert baholash, amaliy statistik tahlil, ekonometrik va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokamalar.

Yerning jamiyatdagi ahamiyati beqiyosdir. “Unda insonlar yashashi uchun binolar quriladi, turli maxsulotlar yetishtiriladi. Yerga urug‘, ko‘chat ekib ishlov berish natijasida turli xildagi maxsulotlar yetishtiriladi. Ingliz iqtisodchisi Uilyam Pettining aytishicha, “yer boyliklar onasi”dir. Yerdan asosiy vosita sifatida foydalanishda uning bir qancha xususiyatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

- Yer maydonlarining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi.
- Yerning tabiat mahsuli ekanligi. Yerni inson ishlab chiqara olmaydi.
- Yer- qishloq xo‘jaligining abadiy ishlab chiqarish vositasidir.
- Yerni turg‘un holatda joylashgan bo‘lib, boshqa joyga ko‘chirishning imkoniyati cheklangan”[3]

-Yerning tuproq unumdorligining mavjudligi, parvarishlash natijasida uning yaxshilanib borishi xususiyatlaridir. Lekin boshqa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashib vaqt o‘tishi bilan ham jismoniy ham ma’naviy jihatdan eskiradi. Lekin yerning ham unumdorligi cheklanmagan degani emas. Shunday ekan, yerning unumdorligidan tadbirkorlik bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yer resurslarning cheklanganligi va ularga bo‘lgan talabning ortib borishi


kamyoblik muammosini yuzaga keltirmoqda. Dunyodagi aholi sonining o‘sishi tabiiy resurslarga bo‘lgan talabni oshirib, ularning tezroq tugashiga olib kelmoqda. Ba’zi resurslar noqonuniy ravishda qazib olinib, atrof-muhitga zarar yetkaziladi va ularning qayta tiklanishi qiyinlashadi. Ekologik muammolar – global isish, deforestatsiya va suv resurslarining ifloslanishi yer resurslarining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Qayta tiklanmaydigan resurslardan haddan tashqari foydalanish ko‘mir, neft va tabiiy gaz kabi yoqilg‘i manbalarining ko‘p ishlatilishi ularning kamayib borishiga olib keladi.

Yer resurslarining kamyobligi jiddiy global muammo bo‘lib, uning oldini olish uchun har bir kishi va jamiyat o‘z hissasini qo‘shishi zarur. [4]

Yerlardan tizimli foydalanishni tashkil etish mexanizni to‘rt qismdan iborat bo‘lib, ularga(1-rasmga qarang):

1. Yerlarni boshqarish tizimi. Bu borada qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni optimallashtirish; yerdan oqilona va maqsadli foydalanishni hisobga olish va nazorat qilishni tashkil etish;yerlarning unumdorligini saqlash va uning pasayishining oldini olish; ma’muriy hududning yerdan barqaror foydalanishini shakllantirish; yerdan foydalanuvchilarning bilim va malaka talablarini kuchaytirish va bu borada amalda qat’iy chora tadbirlarni amalga oshirish lozimdir.Shuning bilan birga bunda,yerlarning raqamli hisobini yuritish; yerlarning raqamli kartalarini yaratish, GPS va GIS texnologiyalari yordamida yerlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va saqlash tadbirlarini amalga oshirish;yerlar bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yaratish; yerlar haqida barcha zaruriy ma‘lumotlar (mulkiy huquqlar, foydalanish maqsadlari, yerning sifat holati va boshqalar) yagona platformada jamlash tadbirlari amalga oshiriladi.

2. Davlat yerlarini ilmiy asoslarda qayta taqsimlash siyosati. Davlat yerlarini ilmiy asoslarda qayta taqsimlash siyosati yer resurslarini samarali taqsimlash va ular bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni joriy qilishga qaratilgan. Bu jarayon quyidagilardan iborat:yerdan samarali foydalanish va sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish; yer holatini tahlil qilish; yerdan samarali foydalanish unumdorligini oshirishni rag‘batlantirish; yer unumdorligini saqlash, yaxshilash bo‘yicha tashkiliy chora tadbirlarni qo‘llash, yashil iqtisodiyot me’zonlarini qo‘llash tadbirlari amalga oshiriladi.Bunda asosan, yerlarni qayta taqsimlashning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tahlillarini amalga oshirish, yerlarning optimal foydalanuvchi taqsimoti haqidagi ilmiy izlanishlarni olib borish; yerni qayta taqsimlashda adolatli va samarali prinsiplarni belgilash, bu jarayonni ilmiy asosda amalga oshirish; yerlarning huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan qayta taqsimlanishi, davlat yerlarining turli sektorlarga taqsimlanishi; taqsimlash jarayonini doimiy ravishda kuzatib borish va mavjud muammolarni aniqlash mishlari bajariladi.



1-rasm. Yer resurslaridan foydalanishni tashkil etish mexanizmi

3. Hududiy rejalashtirish.Yer resurslaridan tizimli foydalanishni tashkil etish mexanizmining bu qismida barqaror ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar yaratish; iqtisodiy va ekologik manfaatlar muvozanatini saqlash; hududlarni rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollarini belgilash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.ududiy rejalashtirish – bu yer resurslarini hududlarda rivojlantirish, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ehtiyojlarni hisobga olgan holda ulardan foydalanish jarayonidir. Bundan tashqari hududda infratuzilmani (yo‘llar, kommunikatsiyalar, elektr va suv tarmoqlari) rivojlantirish uchun zaruriy rejalashtirish va ekologik barqarorlikni hisobga olish ya’ni yerlarni taqsimlashda ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish jarayonlarini amalga oshirishdir.

4. Monitoring. Monitoring tizimi yer resurslaridan samarali foydalanishni kuzatib borish, o‘zgarishlarni tahlil qilish va zarur choralar ko‘rishni ta’minlaydi. Bunda yer fondi holatining tizimli monitoringini tashkil etish, yer resurslari sifatini o‘zgarishini tashkil qilish, salbiy oqibatlarnibartaraf etishning oldini olish tadbirlari amalga oshiriladi.Bunda asosan davomli monitoring tizimini yaratish, kuzatuvlar va hisobotlar tayyorlash, tahlil va prognoz qolish,

monitoring natijalarini mahalliy va davlat organlarining ishtirokida muhokama qilish hamda zarur choralar ko‘rish tadbirlari amalga oshiriladi.

Yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmi nazariy jihatdan yerning o‘ziga xos xususiyatlari, yerga bo‘lgan mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi, yerning qiymati, yer solig‘i, yer ijarasi va yer rentasi kabi jarayonlarning o‘zaro yaxlitligini nazarda tutadi. Ularning har birini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmini asoslashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi bilan birgalikda yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishda qaysi iqtisodiy usullardan qanday foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlashda ustuvor ahamiyatga egaligini belgilashda ham yordam beradi.

Har bir hududning agroiqlimiy va ekologik xususiyatlariga asoslanib yerlarni foydalanish uslublarini moslashtirish orqali degradatsiyaning oldi olish va resurslardan foydalanish samaradorligi oshirish oqraqil agroekologik differensiatsiyalash mumkin. Qishloq xo‘jaligi yerlariga yo‘naltirilgan xususiy va davlat sarmoyalarni jalb etish, foydalanuvchilarga soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar berish orqali innovatsion texnologiyalarni joriy etish rag‘batlantiriladi. Yerga egalik va foydalanish huquqlarining huquqiy aniqligi, yer egalari o‘rtasida bozor mexanizmlarining rivojlanishi, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali tizimli modernizatsiya ta’minlanadi. Shunday qilib, mazkur tushuncha zamonaviy raqamli yondashuvlar va ekologik-iqtisodiy mezonlarga asoslangan holda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimining kompleks modernizatsiyasini amalga oshirish mumkin. Bu esa agrar islohotlarning barqarorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlaydi.

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligi huquqiy va boshqaruv tizimining izchil ishlashiga bog‘liq, yerga egalik huquqining aniqligi – yer bozori shakllanishining asoslanishi, yer bozorlarining rivojlanishi, yerga bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi va samarali yer siyosatini shakllantiradi, korrupsiya va byurokratiyani kamaytiradi. Har bir yo‘nalishning tizimdagi o‘rnini aniq belgilaydi, qaror qabul qiluvchilar uchun strategik rejalashtirishda yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi, resurslar taqsimotini ustuvorlikka qarab tashkil etishga yordam beradi. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimini kompleks modernizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan to‘rtta asosiy yo‘nalish va ularning o‘zaro aloqadorligini aniq va tushunarli tarzda aks ettiradi. Bu model ilmiy asoslangan, tizimli va amaliy yondashuv orqali agrar sektorni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib quyidagicha umumlashtirilgan, ya’ni, uslubiy yondashuvga ko’ra “qishloq xo’jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqamli texnologiyalar, agroekologik differentsiatsiya va investitsion rag’batlantirish asosida er resurslaridan samarali va barqaror foydalanishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy, agrotexnologik va institutsional mexanizmlarni takomillashtiruvchi innovatsion islohotlar majmuasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan.

Xulosa

Yer resurslarning cheklanganligi va ularga bo‘lgan talabning ortib borishi kamyoblik muammosini yuzaga keltirmoqda. Yerdan zamon talablariga mos ravishda foydalanish muammosi kompleks tarzda bo‘lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, rekreatsion-sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilish, tashkiliy-hududiy, axborot, innovatsion, texnologik, tadbirkorlik kabi jihatlarga xos masalalarni yechishni taqozo qiladi. Yerdan foydalanish ko‘p jihatdan undan foydalanishni to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarishga bog‘liqdir va pirovard natijada samaradorlikni ko‘zlovchi

murakkab tizimni tashkil etishi kerak. Ayni shu nuqtai nazardan ham yerdan foydalanishga kontseptual jihatdan iqtisodiy asosga qurilgan tizimli yondashuv bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasining yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish va uning tarkibiy elementlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Bunda, avvalambor, ilmiy-metodologik jihatdan yerdan foydalanish tizimi hamda uning iqtisodiy mexanizmi yerdan foydalanishning va uning kategoriyalarining mazmun-mohiyati hamda o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin va lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://youtube.com/watch?v=vM-sEhKqRYc&si=lKGwAi0tQ43exTc- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri akademik I.Y.Abdurahmonov va H.Ermatov “Yuzma yuz +” ko‘rsatuvi suhbati.2025 yil
2. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 914-sonli qarori 30.12.2024y.
3. www.cer.uz
4. Ткачук С.А. Управление земельными ресурсами (Вопросы общей теории): Учебное пособие. – Целиноград, ЦСХИ, 1986. – 92с. С.11.
5. A.S.Altiyev,“Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari”:Monografiya-Toshkent 2018-234b
6. Usmanov Yu.A. “Degradadsiyaga uchragan sug’oriladigan yerlarni tiklash va foydalanishga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish”:Monografiya-T. 2024-156 b.
7. www.priroda.ru